

O‘zbekiston Respublikasida chet ellik fuqarolarning doimiy yashash uchun ruxsat va yashash uchun ruxsat olishlari tartibi

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashga ruxsat olishlari uchun uzlari vaqtincha yashab turgan ichki ishlar idoralarining tuman (shahar) bo‘limlariga quyidagi hujjatlar bilan murojat qilishlari lozim:

- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan ariza-so‘rovnoma, 2 nusxada;
- qarindoshlari (tanishlari)ning arizachini o‘zlari yashab turgan xonadonga doimiy yashashga rozilik beruvchi notarial tasdiqlangan arizasi, ko‘chmas mulkka egalikni tasdiqlovchi hujjatlar;
- notarial tasdiqlangan nikoh va tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalar nusxasi;
- hujjatlarni rasmiylashtirish uchun to‘langan chipta;
- 35 x 45 mm o‘lchamdagi 2 ta fotosurat.

Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning yashash guvohnomasini olish uchun ular o‘zlari doimiy yashab turgan ichki ishlar idoralarining tuman (shahar) bo‘limlariga quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:

- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan ariza;
- tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma (birinchi marta olish uchun);
- amaldagi horijiy passport;
- vakolatli idoralar tomonidan berilgan uning horijiy fuqaro emasligini tasdiqlovchi hujjat;
- 35 x 45 mm o‘lchamdagi 5 ta fotosurat.
- yashash joyidan olingan oila-a‘zolari haqidagi ma’lumotnoma;
- nikoh haqidagi guvohnoma.